




TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2022- yil yanvar-may)

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga sog'lom raqobat muhitida sifatli va raqobatbardosh hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, o'z vaqtida xaridorlarga yetkazilishida bir qator qulayliklar tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Shuningdek, korxonalar va tashkilotlarga davlatimiz tomonidan bir qator imtiyoz va qulayliklar yaratib berilmoqda, xususan, davlat soliqlarining ma'lum bir muddatga uzaytirilishi va belgilangan vaqtda qisman bo'lib to'lanishi, eksport salohiyatini oshirish bo'yicha ham qulaylik va yengilliklar yaratilishi savdo aloqalarining o'sishiga xizmat qiladi.


2022- yil yanvar-may oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 2 149,6 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 117,9 mln. AQSh dollariga yoki 5,8 %ga ko'paydi.






TSAda eksport hajmi 816,3 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati – 103,1 %) va import hajmi 1333,3 mln. AQSh dollariga (o'sish sur'ati – 107,5 %) yetdi. Hisobot davrida 517,0 mln. AQSh dollari qiymatida salbiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSh dollari)



TASHQI SAVDO AYLANMASINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2021- yil yanvar-mayga nisbatan, %da)

2022- yil yanvar-may





TOSHKENT VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ULUSHI YUQORI BO'LGAN DAVLATLAR (2022- yil yanvar-may, mln. AQSh dollari)


Davlatlar nomlari	TSA	Eksport	Import	Ulush, %da
Rossiya Federatsiyasi	476,8	158,0	318,8	22,2
Xitoy	438,5	153,1	285,4	20,4
Qozog'iston	379,4	49,1	330,3	17,6
Turkiya	348,0	284,2	63,8	16,2
Braziliya	87,1	0,0	87,1	4,0
Tojikiston Respublikasi	31,6	23,0	8,6	1,4
Afg'oniston	27,7	27,4	0,3	1,3
Italiya	27,2	9,4	17,8	1,3
Ukraina	27,2	11,2	16,0	1,3
Qirg'iz Respublikasi	24,0	15,4	8,6	1,1
Koreya Respublikasi	22,4	3,1	19,3	1,0
Germaniya	22,0	3,7	18,3	1,0
Polsha	19,4	6,0	13,4	0,9
Belarus	16,9	10,3	6,6	0,8
Eron (Islom Respublikasi)	12,4	1,3	11,1	0,6
Hindiston	12,4	1,8	10,6	0,6
Niderlandiya	12,3	8,7	3,6	0,6
Ozarbayjon	12,1	3,1	9,0	0,6
Turkmaniston Respublikasi	11,6	5,8	5,8	0,5
Avstriya	10,4	3,9	6,5	0,5



Viloyatda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2022- yilning yanvar-may oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 45,7 %ni hamda o'sish sur'ati 2021- yilning shu davriga nisbatan 106,9 %ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning yanvar-may oylarida 54,3 %ni (2021- yilning ushbu davrida tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 54,8 %ni tashkil qilgan), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 104,9 %ni tashkil etdi.

TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING ULUSHLARI (2022- yil yanvar-may, % hisobida)






TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (2022- yil yanvar-may, mln. AQSh dollari)

MDH davlatlaridan Qozog‘iston, Tojikiston va Qirg‘iz Respublikasi bilan faol tashqi savdo balansi hamda boshqa davlatlardan (qo‘shni davlatlardan tashqari) esa Turkiya, Braziliya va Ukraina davlatlari bilan faol tashqi savdo balansi kuzatilganini ko‘rish mumkin.

TSAda eng yuqori ulush Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog‘iston va Turkiya davlatlari hissasiga to‘g‘ri keldi.






TOSHKENT VILOYATINING EKSPORTI (2022- yil yanvar-may)

Hozirga kunda davlat tomonidan eksportyorlarni qo‘llab-quvvatlash va eksportbop mahsulotlarni yaratishda imtiyozlar hamda iqtisodiy ko‘mak berilmoqda.

2022-yil yanvar-may oyi yakuni bilan 816,3 mln. AQSh dollari qiymatdagi (2021- yilning shu davriga nisbatan 103,1 %) tovar va xizmatlar eksport qilindi. Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,4 %ni tashkil etib, bular asosan sanoat tovarlari (71,9 %), turli xil tayyor buyumlar (9,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (8,5 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari) (3,8 %), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (3,4 %), shuningdek, mashina va transport asbob-uskunalari (2,2 %) guruhlariga to‘g‘ri kelmoqda.





MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI (2022- yil yanvar-may)

Tarkibi	Mln. AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami eksport	816,3	278,0	538,3	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	69,7	30,0	39,7	8,6	10,8	7,4
Ichimliklar va tamaki	1,4	1,3	0,1	0,2	0,5	0,0
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	31,3	16,6	14,7	3,8	6,0	2,7
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	0,4	0,3	0,1	0,05	0,1	0,0
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	0,1	0,1	0,0	0,0	0,05	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	28,1	21,0	7,1	3,4	7,55	1,3
Sanoat tovarlari	587,1	120,0	467,1	71,9	43,1	86,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	18,3	14,8	3,5	2,25	5,3	0,7
Turli xil tayyor buyumlar	75,2	72,6	2,6	9,2	26,1	0,5
Xizmatlar	4,7	1,3	3,4	0,6	0,5	0,6






MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTINING O‘SISH SUR‘ATLARI (2022- yil yanvar-may)

2022- yilning yanvar-may oyida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, 2021- yilning mos davriga nisbatan, mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar, ichimliklar va tamaki, nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari), kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar, sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlarda o‘shish kuzatildi.

Tarkibi	2021- yilning shu davriga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	103,1	109,6	100,1
shu jumladan:			
oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	79,6	60,3	105,0
Ichimliklar va tamaki	130,5	131,6	112,0
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg‘idan tashqari)	91,6	84,1	101,9
Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shu kabi materiallar	8,7 m.	146,7 m.	110,7
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	16,0	2,9 m.	1,4
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o‘xshash mahsulotlar	119,9	138,8	85,3
Sanoat tovarlari	103,1	115,8	100,3
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	148,6	188,3	78,8
Turli xil tayyor buyumlar	128,1	129,3	102,3
Xizmatlar	122,1	2,5 m.	102,2



VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-may)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Qozog'iston, Afg'oniston, Tojikiston va Qirg'iz Respublikasi hamkor davlatlaridan jami eksport hajmi 710,0 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy eksport hajmining 87,0 %ini tashkil qiladi.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismidan biri bo'lgan 36,6 mln. dollar qiymatga ega 53,3 ming tonnadan ziyod qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlari eksport qilingan. Bu 2021- yilning shu davriga nisbatan qiymatda – 37,9 %ga kamaygan, naturada – 62,9 %ga kamaygan, Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 23,6 mln. AQSh dollariga teng 43,2 ming tonnadan ortiq sabzavot (qiymatda 45,7 %ga kamaygan), shuningdek, 7,3 mln. AQSh dollari qiymatidagi 5,1 ming tonna meva va rezavorlar eksport qilindi (qiymatda o'zgarish sur'ati 35,4 %ga kamaygan).

2022- yil yanvar-may, mln. AQSh dollari



Meva va
rezavorlar

5,1 ming
tonna

7,3 mln.
AQSH dollari



Uzum

3,0 ming
tonna

3,4 mln.
AQSH dollari



Yeryon-
g'oqlar

1,7 ming
tonna

2,3 mln.
AQSH dollari



Sabzavotlar

43,2 ming
tonna

23,6 mln. AQSH
dollari

Mamlakatimizda eksport qilinayotgan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilik mahsulotlar sifati va hajmi yanada ortib bormoqda. Jumladan, 2022- yilning yanvar-may oyida meva-sabzavotlarning eksport hajmi 30,9 mln. AQSH dollariga teng bo'lib, jami eksport hajmining 3,8 %ini tashkil qiladi.




TOSHKENT VILOYATINING IMPORTI (2022- yil yanvar-may)

Mamlakatimizda faoliyat yuritmayotgan korxonalar va tashkilotlar holati o'rganilib, xususan ishlab chiqarish korxonalariga import o'rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarishda davlatimiz tomonidan moddiy va moliyaviy yordamlar berilmoqda.

Joriy yilning yanvar-may oyi mobaynida import hajmi 1333,3 mln. AQSh dollari (2021-yilning shu davriga nisbatan o'zgarish sur'ati 107,5 %) tashkil etdi.

Import tarkibida eng katta ulush sanoat tovarlari (20,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (20,5 %), mashinalar va transport asbob-uskunalar (20,3 %), nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (18,7 %), hamda kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar (10,3 %) hisobiga to'g'ri keldi.





MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLAR KESIMIDA XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2022- yil yanvar-may)

Tarkibi	mln. AQSh dollari			umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami import	1333,3	703,9	629,4	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	273,4	131,0	142,4	20,5	18,6	22,6
Ichimliklar va tamaki	1,5	1,5	0,0	0,1	0,2	0,0
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	248,8	232,9	15,9	18,7	33,1	2,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	47,3	46,3	1,0	3,5	6,6	0,2
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	23,1	22,5	0,6	1,7	3,2	0,1
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	137,4	36,5	100,9	10,3	5,2	16,0
Sanoat tovarlari	272,7	195,9	76,8	20,5	27,8	12,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	270,6	25,9	244,7	20,3	3,7	38,9
Turli xil tayyor buyumlar	52,8	9,2	43,6	4,0	1,3	6,9
Boshqa tovarlar	1,9	1,9	0,0	0,1	0,3	0,0
Xizmatlar	3,8	0,3	3,5	0,3	0,0	0,6

Importning eng katta ulushi, nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari) (33,1 %), sanoat tovarlari (27,8 %), MDH mamlakatlariga to'g'ri kelsa, boshqa xorijiy mamlakatlardan esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari (38,9 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (22,6 %) hissasiga to'g'ri keladi.




MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTINING O'ZGARISH SUR'ATLARI (2022- yil yanvar-may, % hisobida)

Tarkibi	2021- yilning shu davriga nisbatan, %da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	107,5	105,9	109,4
shujumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	146,1	148,8	143,7
Ichimliklar va tamaki	47,3	50,5	3,4
Nooziq-ovqat xom-ashyosi (yoqilg'idan tashqari)	106,3	104,6	137,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shu kabi materiallar	101,8	100,9	177,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	63,0	64,3	36,1
Kimyoviy vositalar va shu kabi mahsulotlar	148,8	135,9	154,1
Sanoat tovarlari	116,6	118,2	112,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	82,6	42,9	91,6
Turli xil tayyor buyumlar	85,3	78,3	87,0
Boshqa tovarlar	40,0	57,2	0,0
Xizmatlar	30,3	12,7	34,4





VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2022- yil yanvar-may)



Shulardan 7 ta eng yirik bo'lgan Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Braziliya, Turkiya, Koreya Respublikasi va Germaniya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 1123,0 mln. AQSh dollariga teng bo'lib, bu umumiy import hajmining 84,2 %ini tashkil qiladi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi**
Tel.: (71) 202-86-59